

Fakultetda keksa ustozlarga ehtirom

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2021 yil 4-oktabrdagi №6/18-2/5-23-4-son xati ijrosini ta'minlash maqsadida 8-9 oktabr kunlari tashkillashtirilgan tadbirlar bo'lib o'tdi. Jumladan, 08.10.2021 yil kuni "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedra dotsenti X.Nazarov ishtirokida ustozni ardoqlab 1-kurslar ishtirokida davra suhbatlari bo'lib o'tdi. So'zga chiqqan X.Nazarov ustoz haqida shunday deydi; No'mon Boboyevich Egamberdiyev - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi, Birinchi darajali Mehnat faxriysi, AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligining Koxaran mukofoti sovrindori, bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha AQSh SORROS mukofoti egasi kafedra professori, texnika fanlari doktori Egamberdiyev No'mon Boboyevich "Keksalar haftaligi" doirasida Respublika Nuroniy Jamg'armasi tomonidan "Tashakkurnoma" bilan taqdirlanganligi biz yoshlarga g'urur va iftixor bag'ishlashganligi rost. Darhaqiqat, bu biz yoshlar uchun ham sharaf ham iftixordir.



Tadbirning ikkinchi kuni fakultetning "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasini mudiri t.f.d., prof. A.Arifjanov institutni bitirganligiga 40 yilligi munosabati bilan birga bitirgan kursdoshlari ishtirokida "40 yillik sog'inchli diydor" nomli uchrashuv bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda fakultet va institut miqyosida amalga oshirilgan ishlar bitirganlar o'rtasida kata ta'surotlar qoldirdi, hamda sobiq bitiruvchilar tehsil olayotgan talabarga o'zlarining hayotiy o'gitlarini berdilar. Bu esa yosh bitiruvchi talabalarda kasbga muhabbat shakllanishga xizmat qildi.



GM Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Z.Abdurashidov axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati